



“O‘zmetkombinat” AJ Komplayens – xizmati

**KORRUPSIYAGA
OID MA’LUMOTLAR
O‘QUV QO‘LLANMASI**



Bekobod – 2024y.

MUNDARIJA

SINGAPURNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH STRATEGIYASI.....3

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH STRATEGIYASI.....3

QANDAY QILIB SINGAPUR KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA BUNDAY YUksak NATIJALARGA ERISHISHGA MUVAFFAQ BO'LDI?.....5

SINGAPURNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH STRATEGIYASI

Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurashish mavzusi ommaviy axborot vositalari va matbuot - nashrlari sahifalarini tark etmayotgan, shuningdek, hukumatlar tomonidan uning Davlat va Jamiyat rivojlanishi uchun zararli oqibatlarini yo‘q qilish bo‘yicha sa’y-harakatlar kamaymayotgan bo‘lsada, bu illatlarga qarshi kurashishda muvaffaqiyatga erishganlar soni unchalik ham ko‘p emas. Bundan tashqari, korrupsiya jinoyatlarining keng tarqalishi va bu noqonuniy amaliyotlar ko‘rilayotgan zarar miqdori kun sari oshib bormoqda. Korrupsiya o‘ta xavfli ijtimoiy illat deb sanalishi bejiz emas, vaholanki, korrupsiya ma’lum ma’noda sezilarli darajada kamayishi mumkin bo‘lgan, ammo butunlay yo‘q qilinishi mumkin bo‘lmagan tarixiy real - muqarrarlikdir.

Hamma davlatlarda korrupsiyaga qarshi qonun hujjalari qabul qilinmoqda, tegishli davlat huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar yaratilmoqda, korrupsiyaga oid huquqbazarliklar uchun javobgarlik tobora kuchayib bormoqda. Biroq, dunyoda juda kam qisqa tarixiy davrda korrupsiyaga qarshi kurashni takomillashtirish jarayonlariga haqiqatdan konstruktiv ta’sir ko‘rsatgan, korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali qonunchilik bazasiga ega deb tasniflanishi mumkin bo‘lgan Davlatlar va Jamiatlar unchalik ham ko‘p emas. Aynan Singapur korrupsiyaga qarshi kurashishda muvaffaqiyatga erishgan Davlatlar qatoriga kiradi. Singapur zamonaviy sanoatlashgan mamlakatlar orasida birinchi bo‘lib korrupsiyaga qarshi faol kurash boshladи va hokimiyat organlarining ma’naviy asoslarini va hukumat boshqaruv apparatning professionalligini mustahkamlashga kirishgan Davlat hisoblanadi. Xalq harakati partiyasi bilan birgalikda strategik me’yorlar bo‘yicha va tarixiy juda qisqa vaqt ichida (*1959-yildan beri*) Singapur hukumati korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurashish sohasida ajoyib muvaffaqiyatlarga erishdi - bugungi kunda Singapur korrupsiyani oldini olish va bartaraf qilish nuqtai nazaridan eng sog‘lom davlatlardan biridir. Va bu nafaqat Osiyo-Tinch okeani mintaqasida, balki butun dunyo hamjamiyati miqyosida ekanligini e’tirof etish zarur. Qariyb yigirma yil davomida mamlakat dunyodagi eng kam korrupsiyalashgan yetti davlat qatoridan joy olib kelmoqda.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH STRATEGIYASI

Mamlakatning korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi uchta asosiy maqsadga yo‘naltirilgan:

- davlat apparatini poraxo‘rlardan ozod qilish;
- byurokratik tamoyillarni soddalashtirish va qonuniylikni kuchaytirish orqali mansabdar shaxslarning vakolatlarini tartibga solish;
- kasbiy faoliyatning axloqiy me’yorlariga rioya etilishini nazorat qilish.

Shu bilan qatorda mansabdar shaxs, advokat, sudya, davlat shifoxonasi shifokori, ilmiy tadqiqot instituti ilmiy xodimining ish haqi miqdori xususiy korporatsiyada shunga o‘xhash ish uchun pul topishi mumkin xususiy yuridik yoki boshqa kasbiy amaliyot uchun olinadigan ish xaqiga tenglashtirildi. Bunday sharoitlarda shaxslararo munosabatlarda halollik va odillik tez orada inson ruhiyatining ajralmas bir qismiga aylanadi.

Holatni tushunish, kontseptual xarakterdagi korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarning butun tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Ularning barchasi har tomonlama o‘ylangan bo‘lib, dolzarblik, qat’iylik, izchillik va qattiqko‘lligi bilan ajralib turardi. Mamlakat rahbariyati Korrupsiyaga qarshi kurashishda ustuvor yo‘nalish sifatida eng samarali bo‘lishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar qilib quyidagilarni aniqladi:

- korrupsiyaga qarshi kurashishda zamonaviy qonunchilikni yaratish;
- korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus, maksimal darajada mustaqil davlat organini tashkil etish;
- korrupsiya uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish;
- davlat xizmatchilarini yuqori ijtimoiy himoyasini kafolatlash;
- doimiy va tizimli ravishda boshqaruv xodimlarining rotatsiyasi amaliyotini ta’minlash;
- korrupsiyaviy qoidabuzarliklar faktlari bo‘yicha guvohlik bergen shaxs va uning oila a’zolari xavfsizligini qonunchilik bilan kafolatlash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini OAV larida keng yoritish;
- qonunlar va qoidalari korrupsiya oqibatlari yo‘nalisihida mustaqil ekspertiza o‘tkazish.
- Korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari ham puxta ishlab chiqilgan;
- Korrupsiyaviy qoidabuzarlikda munosabatlarda har ikki tomonning javobgarligi;
 - davlat va xususiy – saxsiy manfaatlarning farqlanishi;
 - hammaning qonun va sud oldida tengligi;
 - hokimiyat boshqaruv apparatni debyurokratizatsiya qilish - hujjat aylanishini minimallashtirish, rahbarning shaxsiy namunasi;
 - davlat xizmatida martaba o‘sishi oilaviy aloqalar yoki do‘stlarga emas, balki shaxsiy yutuqlar va muvaffaqiyatlarga asoslangan bo‘lishi;
 - munosib ish haqi to‘lash;
 - nazorat qilish ustuvorligi - kutilmagan biznes tekshiruvlari, daromadlar, mol-mulk va qarzlar to‘g‘risidagi deklaratсиya, korrupsiyaviy operatsiyalarga aloqadorlikda gumon qilingan shaxslarning bank, aksiyadorlik va joriy hisobvaraqlarini tekshirish. “Ushbu g‘oyalari tashabbuskorlari odamlarga berilgan xattoki unchalik katta bo‘lmagan hokimiyat ish xaqi maoshiga munosib yashay olmaydigan mansabdorlarga, berilgan hokimiyatdan noto‘g‘ri foydalanish uchun o‘ta jozibali rag‘batlar yaratadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda Singapur yetakchilari meritokratiya tamoyillari va Konfutsiy etikasi asosiy qonunlarga tayangan. Xalq ishonchi hukumatning eng yuksak aktividir. Samarasiz hukumatlar va Ayrim Osiyo mamlakatlarida hokimiyatning eng yuqori pog‘onalari korrupsiya botqog‘iga botishi natijasida ushbu davlat va Jamiyatlarni tanazzulga yuz tutganligi hammaga ayon edi. Shu sababdan iste’dodga asoslangan inson kapitalidan samarali foydalanish, shaffof va ishonchli kadrlar tanlash tizimini joriy etish, mansabdor shaxslarning chinakam mas’uliyat bilan o‘z vazifalarini bajarishlarini ta’minlovchi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan tizimini shakllantirish dolzarb mavzuga aylandi.

Singapurning hozirgi avlod rahbarlarining aksariyati “halol va odil bo‘lib qolish” tamoyili odat va hayot normasi sifatida ko‘rilgan. Ular yuksak bilim, munosib va barqaror moliyaviy layoqatga ega bo‘lib, hokimiyatga boylik orttirish maqsadida kelmagan edilar. Ularning shaxsiy benuqsonligi Jamiatda yangi axloqiy – ijtimoiy muhitni yaratishga imkoniyat yaratdi. Jamoatchilik fikri nazdida **Korrupsiya** Jamiatning muvaffaqiyatli rivojlanishi, davlatning xalqaro maydonagi obro‘siga to‘gridan - to‘gri tahdid sifatida qarala boshladi.

Garchi - bu shaxsiy daromad orttirish uchun eng jozibali tanlov bo‘lmasada hukumat a’zolarining yuksak ma’naviy obro‘sisi davlat lavozimlariga munosib va iqtidorli odamlarning yangi avlodini jalb qilishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda, bu kurashni sezilarli darajada murakkablashtiruvchi o‘ziga xosliklar inobatga olindi. Aholining to‘rtadan uch qismi etnik xitoylar bo‘lib, agar amaldorning oldiga borsangiz, albatta “sovg‘a” olish Xitoylarda qadim zamonlardan beri odat bo‘lgan. Holat shu darajada yetdiki, hatto “Minnatdorchilik” bildirmasa hech qanday muammo hal qilinmas edi. Amladorlarga sovg‘a salom berish odatiy holga aylanib ulgurgan edi.

QANDAY QILIB SINGAPUR KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA BUNDAY YUKSAK NATIJALARGA ERISHISHGA MUVAFFAQ BO‘LDI?

Bugungi kunda Singapurda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida kuchli ijtimoiy qo‘llab quvvatlahga yo‘naltirilgan qonunchilik mavjud. 1937-yilda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida” mahalliy qonun yangilandi va 1960-yilda “Korrupsiyaning oldini olish to‘g‘risida Qonuni” qabul qilinib, bu Qonun ikki maqsadni: milliy qonunchilikning korrupsiyaviy holatlarga yo‘naltiruvchi moddalarini neytrallash va poraxo‘rlik uchun jazolarni kuchaytirishni amalga oshirdi.

Yangilangan hujjat korrupsiyaning barcha turlarini (pora berish va olishni aniq belgilab bergen, sovg‘alar shaklida “minnatdorchilik” olish va qonun ortiga yashirinish orqali javobgarlikdan qochib qutula olmaydi) va poraxo‘rlik uchun qamoq jazosi muddatlari keskin oshirildi. Qonun davlat xizmatchilarining

- ish haqini indeksatsiya qilish va doimiy ravishda oshirilishini;
- fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlarning tartiblarini takomillashtirish maqsadida korxona va tashkilotlar byurokratik zanjirlarni (qoidalarni) bartaraf etishni;
- to‘g‘ri va shaffof nazoratni;
- barqaror korruption aloqalar shakllanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun xodimlarni almashтирishni (muntazam ravishda rotatsiya qilish);
- davlat maxfiy sirlarini (insayder ma’lumotlarining) chiqib ketishini oldini olish uchun maxfiylikni ta’minlaydi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish rejalari va korrupsiyaga qarshi aniq chora-tadbirlarni ko‘rib chiqish (har 3-4 yilda bir marta) tartiblarini takomillashtirish tizimi mavjud. Tartibga solish mexanizmi sifatida jarimaga torish, qamoq jazosi, musodara qilish, ishdan bo‘shatish kabi usullardan foydalilanadi. Bundan tashqari, Jamiatning har

bir a'zosi, poraxo'rlik nafaqat o'zini, shu bilan bir qatorda uning oila a'zolari va avlodlarining muvaffaqiyatli kelajagini shubha va xavf ostiga qo'yishini xis qiladi. Albatta, faqatgina bir avlod vakillarini emas.

Yangi qonunchilikka ko'ra, ayniqsa saylovoldi tashviqotlari va siyosiy partiyalarga xayriya xarajatlarini cheklash nuqtai nazaridan o'z shaxsiy manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yish kabi holatlar uchun jazolar bir necha baravar qat'iylashtirilgan. Prezidentlik va parlament saylovlari davrida ovoz berish, qatnashish har bir fuqaro uchun majburiy, ya'ni bu bilan saylovchilarni sotib olish va katta xarajatlarni amalga oshirilishiga butunlay barham berildi.

Bugungi kunda Singapurliklar qonunga bo'ysunuvchi fuqarolar sifatida hech qanday "tashqi bosimsiz", pul va ko'proq va'da qilganlar uchun emas, balki o'z dasturida hallolikni namuna deb bilgan, yo'llar, kasalxonalar, maktablar va ijtimoiy sohani yaxshilaydigan nomzodlarga ovoz berishadi.

Shu bilan bir qatorda, muxolifatni qasddan kamsitishga yo'l qo'yilmaydi. Aksincha, Singapurda parlament muxolifati rasman korrupsiyaga qarshi "hukumatga bosim" o'tkazuvchi eng muhim omil sifatida baholanadi. Shuningdek, OAV korrupsiyaviy tizimlarning nayrangi bilan ish yuritishiga, ya'ni kichik bir guruqlar huquqlarini himoya qiliashiga yo'l qo'yilmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha strategiya va tezkor taktik qarorlarni amalga oshirishda yetakchi rol' Singapurning xalq tomonidan saylangan Prezidentiga tegishli. Davlat rahbari milliy boylik, yirik korruption janjallarni qat'iy va xolis tergov qilish, kadrlarni tanlashda ilmiy asoslangan tartib – taomillarni joriy etish, jumladan, Qurolli kuchlar, sud tizimi va ijroiya apparatiga kadroviy tayinlovlarni amalga oshiradi.

Korrupsiyani tergov qilish byurosi (korrupsiyaga qarshi kurash agentligi) tashkil etilishi sezilarli darajada samara berdi. Korrupsiyani tekshirish va unga chek qo'yish, iqtisodiyotning davlat sohasi va xususiy sektorda hamda mansabdar shxslarning korrupsiya illatiga yuz tutganliklari kabi ma'lumotlarni tekshirish, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va uni bartaraf etishning amaliy choralarini ishlab chiqish ushbu kabi yo'nalishlar byuro vakolatiga kiritilgan. Singapurning har bir dollari sarflanishi qat'iy nazoratga olindi. Byuro hali ham mamlakat siyosiy rahbariyatining to'liq ishonchiga ega va bevosita mamlakat hukumati oldida javobgardir, bu o'z navbatida ushbu byuroning tashqi ta'sirlardam mustaqilligini ta'minlaydi.

Sud - huquq tizimining professionalligi va mustaqilligini mustahkamlash va oshirish alohida rol' o'ynadi. Butun korrupsiyalashgan sud tizimi bir kechada mamlakatning eng yaxshi advokatlari bilan almashtirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati davlat xizmatchilarning ish haqini keskin oshirish o'tkazilgandan so'ng yanada samarali natijalar berdi. Hukumat politsiyachi va ofisdagi oddiy xizmatchi pora olish vasvasasini istisno qiladigan maoshga ega bo'lishi kerak degan tamoyilni o'ziga dasturul amal qilib oldi. Parallel ravishda, pora olish va taklif qilish uchun jazo choralar kuchaytirildi va keskinlashtirildi. Davlat boshqaruva xizmatlarida korrupsiyaviy qoidabuzarliklarga yo'l qo'ygan xodimlarni ishdan bo'shatish va ozodlikdan mahrum qilish kabi jazolar qo'llanildi. Bu chora-tadbirlarning barchasi

iqtisodiyotga davlat aralashuvini kamaytirish, mansabdor shaxslarning ish haqini oshirish va malakali kadrlar tayyorlash kabi yo‘nalishlarni amalga oshirish bilan ta’minlandi.

Dastlab, parlamentariylar va Singapurning oddiy fuqarolari hukumatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga ishonch sizlik bilan munosabatda bo‘ldilar.

Shuning uchun Bosh vazir Li Kuan Yu, bunday chora-tadbirlarning maqsadga muvofiqligini omma oldida asoslab, Vazirlar, sudyalar va oddiy amaldorlarning erkinlikni shunday yuqori maosh bilan xavf ostiga qo‘yishi bema’nilik bo‘lishini ta’kidlar edi. Singapurda odil va halollik bugun mansabdor shaxsning eng muhim kasbiy va insoniy fazilatlaridan biri hisoblanadi. Biroq, poraxo‘rlik tizim sifatida mamlakat kundalik hayoti darhol yo‘qolmagani aniq, yuqori maoshga qaramay, ba’zi mansabdor shaxslar daromad olishdan (poraxo‘rlik evaziga) o‘zlarini tiyib turolmadilar. Muhimi, bu amalda birorta ham rasmiy suiiste’molliklar fakti tegishli organlar va komissiyalar e’tiboridan chetda qolmaydi.

Singapur misoli, tarixan qisqa muddat davomida ishonchli tarzda namoyish etilgan siyosiy iroda, qonunchilikdagi samarali o‘zgarishlar, sotilmas agentlik va mustaqil sud korpusi, korrupsiyani eng quyi darajalargacha kamaytirish mumkinligini ko‘rsatdi. Islohotlarning aniq va tushunarli maqsadlari, ularni amalga oshirishning qat’iy usullari, ko‘pincha, G‘arb rivojlanish modellarining zid bo‘lsada, a’lo natijalarga olib kelganini butun jaxon hamjamiyati tan oladi.

Biz anglab yetishimiz kerak bo‘lgan eng muhim hulosa shuki, Singapurda tom ma’noda, korrupsiya kontseptual darajada xavfli ekanligini, hamda uni yengish va Mamlakatda to‘g‘ri huquqiy tartibni o‘rnatish faqat quyidagi hollarda mumkin ekanligini tushunib yetishdi:

- korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga asoslangan zimdan chirigan tizimni butkul parchalash;
- xalqning hukumatga bo‘lgan ishonchini so‘zda emas, balki amalda oqlash;
- kam ish xaqi to‘lanadigan va axloqiy me’yorlarga buysunmaydigan mansabdor shaxslar nafaqat hukumat qarorlarini bajarmasliklari, aksincha uni zimdan yemirishlari, buning uchun esa, ularni lozim darjada rag‘batlantirish, odillik va halollik bilan o‘z xalqi va davlati uchun xizmat qilishlariga keng sharoitlar yaratish.

Bugun Singapurda ijtimoiy hayotning barcha qavatlarida va boshqaruvning barcha bo‘g‘inlari va darajalarida “ochko‘zlik, korrupsiya va mansabdor amaldorlarning axloqiy tubanlashuviga” nisbatan jirkanish muhiti shakllangan va Jamiyatda asrlar davomida shakllangan “Osiyoliklar buzuq turmush tarzi”ni yo‘q qilish uchun barcha kuchlar safarbar qilingan.

O‘rtacha darajada kamtarin uy-joy, shaxsiy bog‘bonlar va haydovchilarning yo‘qligi, hamma xizmatchilar uchun oddiy ish xonalari, mansabdor shaxslar uchun juda qimmat xizmat avtomobillarini taqiqlash siyosati va rasmiy munosabatlarda halollikka intilish o‘ziga xos ramziy madaniyat etib shakllantirildi. Bu tarozining bir pallasi xolos. Boshqa tomondan, ishsizlikka qarshi kurash, kam ta’minlanganlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash; uy-joy va jamoat sog‘liqni saqlash sohasini subsidiyalash, keksalarga g‘amxo‘rlik qilish vaadolatli pensiya ta’mnoti, iqtisodiy samaradorlikni o‘sishiga

muvofiq ish haqini oshirish hamda muvozanatlari soliq siyosatidir. Va bu xo‘jako‘rsinga emas, balki Davlatning uzoqni ko‘zlagan ijtimoiy – siyosiy Dasturidir.

Davlat xizmatchisi bo‘lish obro‘li va yuqori maoshli ishga aylantirildi. Yuqori lavozimlarga eng aqli, eng ilg‘or fikrli va qobiliyatlar tayinlanishi tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Potentsial nomzodlarni tanlash maktab davridayoq boshlanib, keyin esa bo‘lajak ma’muriy elitaga yo‘l shaxsiy takomillashtirish va kasbiy malakalarni oshirish orqali erishiladi:

- nufuzli universitetlarga kirishga yordam berish, nomzodlarni chet elda o‘qish va amaliyot o‘tash uchun yuborish, muvaffaqiyat va yutuqlarni rag‘batlantirish, o‘zlarining qobiliyatlari asosida ularga lavozimlarni taklif qilishdir.

Har yili Hindiston, Xitoy va boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo mamalakatlaridan kelgan eng yaxshi talabalar uchun ularni Singapurda yoki uning chet eldagagi kompaniyalarida keyinchalik ishga joylashish umidi bilan bir necha yuzlab stipendiyalar ajratiladi. Bu faoliyat natijasida natijasida mutaxassislarni ishga qabul qilish oqimi, “qobiliyatli eng yaxshi talabalarni chiqib ketish oqimiga” nisbatan uch barobar oshdi.

Yuqori samaradorlikka erishining ajralmas qismi bu muntazam ravishda xodimlarni malakasini oshirish, o‘qitish va tayyorgarlikdan o‘tkazishdir. Har bir amaldor har yili kamida 100 soatlik mashg‘ulotlardan o‘tishi kerak, shu jumladan, davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati yo‘nalishidagi mavzular.